

Chorrossiyasi Tomonidan Qo'qon Xonligining Bosib Olinishi

Umidjon Paxriddinov

Farg'ona davlat universiteti akademik litseyi o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Rossiya imperiyasining Turkiston o'lkasidagi Qo'qon xonligini bosib olishi, qarshilik harakatining dastlabki davri haqida so'z boradi. Maqoladagi ishlatilgan barcha ma'lumotlar tarixiy faktlar hisoblanadi. Mazkur davr tarixiga oid ko'plab terminlar qo'llaniladi.

Kalitso'zi: Etnoslararo aloqalar, ekspluatatsiya, ekspeditsiyalar, Ivan Grozniy, Po'latxon, vassal, fon Kaufman

Завоевание Коканского Ханты Россией

Умиджон Пахридинов

Преподаватель Академического лицея Ферганского государственного университета

Аннотация: В данной статье рассматривается завоевание Российской империей Кокандского ханства в Туркестанском крае ранний период движения сопротивления. Вся информация, используемая в статье, является историческими фактами. Используется много терминов, относящихся к истории этого периода.

Ключевое слово: межэтнические отношения, эксплуатация, экспедиции, Иван Грозный, вассал, фон Кауфман

Conquest Of Kokan Khanty by Russia


Umidjon Pakhriddinov

Teacher of the Academic Lyceum of Fergana State University

Abstract: This article examines the conquest of the Kokand Khanate by the Russian Empire in the Turkestan region, the early period of the resistance movement. All information used in the article is historical facts. Many terms related to the history of this period are used.

Keywords: interethnic relations, exploitation, expeditions, Ivan the Terrible, vassal, phon Kaufman

Farg'ona - tog'lar orasida joylashgan vodiylar. Uning hududi shimoliy-g'arbda Qurama va Chotqol tog' tizmalari, shimoliy-sharqdan esa Farg'ona, Janubiy Olay va qisman Turkiston tog' tizmalari bilan o'ralgan. Farg'ona vodiysining umumiy maydoni tog'larni qo'shib



hisoblaganda 22,2 ming km² ni tashkil qiladi. Uning hududida O'zbekistonning uchta (Andijon, Namangan va Farg'ona), Tojikistonning bitta (So'g'd) Qirg'izistonning ham uchta (O'sh, Jalolobod va Botkent) ma'muriy viloyatlari joylashgan¹.

Farg'ona vodiysi hududini-tekislik, tog'oldi va tog' zonalariga ajratish mumkin. Uning iqlimiy xususiyatlari ham ushbu geografik joylashish xolatidan kelib chiqadi. Vodiyning bunday o'ziga xos geografik o'rni, uning tabiiy sharoitining qulayligi qadimdan ushbu hududda insonlarni istiqomat qilishi, dehqonchilik va chorvachilik bilan mashg'ul bo'lib, uni rivojlanish imkonini bergan.

Bu hududidan topib o'rganilgan arxeologik materiallar esa ushbu joyda eramizdan avvalgi davrlardayoq aholi zich joylashganligini, aholisi etnik jihatdan xilma-xil bo'lganligini, etnoslararo aloqalarni jadal kechganligini tasdiqlab turibdi.

Kavkaz, Volgabo'yi, Sibir va O'rta Osiyo ustidan hukmronlik qilish rus podsholarining azaliy orzusi edi. Rossiya podshosi Ivan Grozniy ana shu orzuni amalga oshirishni boshlab berdi. U XVI asr ikkinchi yarmida Qozon, Ashtarxon va Sibir xonliklarini bosib oldi. Ayni vaqtda, Rossiya imperiyasining o'lkamizga bo'lgan qiziqishi paydo bo'ldi. Bu o'rinda A. Jenkinson (1558-y.), knyaz A. Bekovich-Cherkasskiy va I. Buxgolts (1718-y.), F. Beneveni (1725-y.), D. Gladishev va I. Muravin (1740-1743-y.), F. Yefremov (1774-1782-y.) va boshqalarning ekspeditsiyalarini eslash mumkin. Ushbu ekspeditsiyalar mintaqani o'rganish, josuslik va bosib olish uchun qaratilgan bo'lsada, bevosita Turkiston o'lkasini zabt etishga harakatlar XIX asrning o'rtalari va ikkinchi yarmida boshlandi.

Rossiya 1847-1866-yillarida Qo'qon va Buxoro xonliklariga qarashli bir necha shahar, qishloq va cho'llarni bosib oldi. 1865-yili Toshkent shahri bosib olindi va u mintaqa markaziga aylandi. Endi general Chernyaev boshchiligida tuzilgan Turkiston o'lkasi bosqinchilarning mintaqada yuritmoqchi bo'lgan mustamlakachilik talabiga javob berolmay qoldi. Ayniqsa, bu o'lkaning uzoq masofadagi Orenburg general-gubernatorligiga bo'ysundirilishi bir qancha qiyinchiliklarga sabab bo'ldi. Rus davlatiga o'z bosqinchilik urushlarini davom ettirib, mustamlakachilik siyosatini xayotga izchillik bilan tadbiiq etish uchun mustahkam va takomillashgan ma'muriy tizim zarur edi.


1867-yil 2 iyuldan boshlab alohida Turkiston general-gubernatorligi tuzilib, general-adoyutant K.P. Kaufman boshliq etib tayinlandi, Toshkent uning poytaxti bo'ldi. Shundan so'ng butun urush harakatlari Toshkent orqali amalga oshiriladigan bo'ldi. Kaufman Podsho Rossiyasining bosqinchilik siyosatini davom ettirib, 1868-yilda Buxoro va 1873-yilda Xiva xonliklarini bosib olib, ularni rus davlatining vassalligiga aylantirdi. Shu tariqa, O'rta Osiyoning asosiy qismi Rossiya tomonidan bosib olinib, navbatda Qo'qon xonligini tugatish masalasi Podsho Rossiyasi hukumati oldida ko'ndalang bo'lib turardi².

1868-yilning 13-fevral kuni Turkiston general-gubernatorligibilan Qo'qon xonligi o'rtasida shartnomaimzolandi³. Unga ko'ra, xonlikning barcha shahar va qishloqlarida Rossiya

¹ Abdullaev U.S. Farg'ona vodiysida etnoslararo jarayonlar (XIX-XX asr boshlari). –T., «Yangi asr avlodi», 2005. 4-bet.

² Sharafiddinov A., Alimova N. Farg'ona vodiysi chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida (o'quv-uslubiy ko'rsatma). Farg'ona, Super-Print, 2011.13-bet.

³ Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. O'zbekistonning yangi tarixi. Birinchi kitob. Toshkent, Sharq, 2000.146-bet.



savdogarlari uchun bemaol savdo-sotiq bilan shug'ullanish imkoni berildi. Garchand mazkur bitimda asosan savdoga doir masalalar nazarda tutilgan bo'lsa-da, lekin uning qabul etilishi Qo'qon xonligining siyosiy jihatdan ham Rus davlatiga qaramligini ta'minladi.

XIX asrning 60-80-yillarida Qo'qon xoni Xudoyorxonning shafqatsiz tartiblari, hamda dehqonlar va shahar kambag'allarining qattiq ekspluatatsiya qilinishi, mehnatkash xalqning siyosiy va iqtisodiy huquqsizliklari xalqning ahvolini juda ham achinarli holatga solib qo'ydi. Buning ustiga xonlik hududining bir qismi Rossiya qaramog'iga o'tganligi natijasida daromadning kamayib ketgan qismini to'ldirish uchun Xudoyorxon yangi soliqlar joriy qilishga va eski soliqlarni oshirishga kirishdi. Uning farmoyishi bilan xonlikda soliq ustiga soliq, o'lpon ustiga o'lpon, odamlarni qatl qilish ishlari avj oldi.

Shuning uchun xonga qarshi xalq bilan birgalikda saroy harbiylari va amaldorlari, ruhoniylar va savdo vakillari ham bosh ko'tardi. Bunda o'zbeklar, qirg'izlar va tojiklar faol qatnashib, bu harakatga Mulla Ishoq mulla Hasan o'g'li boshchilik qilib, u Po'latxon nomi bilan shuhrat qozongan edi.

1875-yilning 22-iyulida Xudoyorxon Qo'qonni tark etadi. Rus qo'shinlari himoyasida Xo'jandga etibboradi. So'ngra Toshkentga kelgach, xalq hisobiga to'plagan xazinasi tortib olinadi va o'zi 11 kishi bilan Orenburgga surgun qilinadi⁴.

Xudoyorxon Qo'qondan chiqib ketishidan oldinoq yuqori tabaqa vakillari taxtga uning o'g'li Nasriddin va boshqa nomzodlarni o'tkazishga kirishgan edilar. Abduraxmon oftobachi boshchiligidagi guruhlar Nasriddinni taxtga o'tqazishga muvoffaq bo'ldilar. Bu xon Turkiston general-gubernatorligi bilan go'yo yaxshi aloqalarni o'rnatish maqsadida Kaufmanga xat yuborgan.

Qo'qon xonligidagi xalq harakatlari va Xudoyorxonning qochishi orqasida yuzaga kelgan og'ir vaziyat rus hukumatiga qo'l keldi. Bu vaqtda Yettisuvda turgan Kaufman darhol Toshkentga qaytib, xonlikni bosib olish choralarini ko'rdi.

1875-yil 20-avgustda Kaufman o'sha qo'shin bilan Xo'janddan chiqib, Qo'qon yo'li bo'ylab yurdi, 40 chaqirim yo'l bosgandan keyin Mahram istehkomiga duch kelib, uni bosib olishga kirishdi. 1875-yil 22-avgustda shaxsan Kaufman qo'mondonligida qo'shin Mahramning orqa tomonidan hujum boshladi, bu jangda qo'zg'olonchilar mag'lubiyatga uchradi.

Mahramdagi mag'lubiyat xonlik taqdirini uzil-kesil hal qilgan omillardan biri hisoblanadi⁵.


Xullas, 29-avgustda general K.P.Kaufman boshliq rus qo'shini Qo'qon shahriga g'olib sifatida kirib keladi⁶. Uni Nasriddinbek boshliq bir guruh nufuzli kishilar qarshi oladilar. Har ikki tomon o'rtasida shartnoma tuzilib Qo'qon xonligi o'zining chor xukumatiga qaramligini va bir qator og'ir shartlarni o'z bo'yniga oladi. Bu xalq noroziligini va harakatini yanada kuchaytirdi, Andijon shahri qo'zg'olonning markaziga aylandi.

Andijonda Abdurahmon oftobachi rahbarligida 60-70 ming kishidan iborat kuch to'planib,

⁴ Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. O'zbekistonning yangi tarixi. Birinchi kitob. Toshkent, Sharq, 2000.154-155-betlar.

⁵ Sharafiddinov A., Alimova N. Farg'ona vodiysi chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida (o'quv-uslubiy ko'rsatma). Farg'ona, Super-Print, 2011.22-bet.

⁶ Shamsutdinov R. Karimov Sh., Ubaydullayev O'. Vatan tarixi (XVI-XX asr boshlari). Ikkinchi kitob. Toshkent, Sharq, 2010.179-bet.




shahar ximoyasiga tayyorlandilar. Po'latbek esa 25 ming qirg'iz bilan ruslarga orqa tarafdin zarba berish maqsadida shahar chekkasiga o'rnashgan.

1875-yil 9-oktyabrda qo'zg'olonchilar xonlikning poytaxti Qo'qonni egallaydilar. Nasriddinbek Xo'jandga, Podsho Rossiyasi hukumatinin qo'l ostiga yo'l oladi. General Skobelev boshchiligidagi Chor qo'shinlari Namangan atrofidagi Baliqchida qo'zg'olonchilarga zarba berib, qishloqlarni xonavayron qildi va odamlarni o'ldirgan holda Andijon tomonga yo'l oladi. 9-yanvarda general Skobelev askarlari Andijon shahrini shu darajada qattiq bombardimon qiladilarki, natijada juda ko'p kishilar xalok bo'ldilar. Abdurahmon oftobachi rahbarligidagi qo'shinlar qochib, o'z hamrohlari bilan taslim bo'ladi. Skobelev esa Andijon shahrini egalladi.

Po'latxon bir qism qo'zg'olonchilar bilan Uchqo'rg'onga chekindi. Bu joy ham Chor askarlari tomonidan egallanib, Po'latxon qo'lga olinadi va Podsho Rossiyasi hukumati tomonidan osib o'ldiriladi. Shu tariqa 1873-yilda boshlangan qo'zg'olon 1876-yilning yanvarida Podsho Rossiyasi hukumati tomonidan bostirilgan edi. 1876-yilning fevralida Podsho Rossiyasi hukumati Qo'qon xonligini butunlay tugatib Qo'qon xonligi hududida Farg'ona viloyatini tashkil etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdullaev U.S. Farg'ona vodiysida etnoslararo jarayonlar. –T., «Yangi asr avlodi», 2005
2. Бобобеков Х. Қўқон тарихи. - Т: Фан, 1996.
3. Ilhomov Z., Xo'jamov M. O'zbekiston tarixi (XVI-XX asr boshlari) ma'ruza matnlari. Toshkent, 2002.
4. Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. O'zbekistonning yangi tarixi. Birinchi kitob. Toshkent, Sharq, 2000.
5. Хасаний М. Туркестон босқини. –Т.:1992.
6. Ziyoev H. Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash. Toshkent: Sharq, 1998.
7. Shamsutdinov R. Karimov Sh., Ubaydullayev O'. Vatan tarixi (XVI-XX asr boshlari). Ikkinchi kitob. Toshkent, Sharq, 2010.
8. Nuriddin Muxitdinovich Ahmadiyev. [Diniy ta'limda yoshlarning islomiy ma'naviy farovonligi](#). НамДУ илмий ахборотномаси - Научный вестник НамГУ 2019 йил 6-сон.
9. Nuriddin M Ahmadiyev, Islom M Juraev. [Family reading-a leading factor in the promotion of youth moral education](#). Научные исследования в Кыргызской Республике, 2019.
10. A.N.Muxutdinovich [Yoshlarning ma'naviy-ijtimoiy faolligini oshirish omillari](#). Amerika ijtimoiy va gumanitar jurnali, 2022 yil.
11. Nuriddin Ahmadiyev. [Ma'naviy tahdidlarning oldini olishda yoshlarni mafkuraviy tarbiyalashning ahamiyati](#). Akademiya: Xalqaro ko'p tarmoqli tadqiqot jurnali, 2021 yil.
12. N. M. Ahmadiyev. [YOSHLARNING MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYASI - BUYUK ISTAJALAR OMILI](#). PEDAGOGIKA. PROBLEMY, PERSPEKTIVY, INNOVATSII, 2020 yil.



-
13. Ahmadiyev Nuriddin Muxutdinovich. [Oilada bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash, yoshlarni kekxa avlodga begonalashtirish masalalarida](#), Markaziy Osiyo adabiyot, falsafa va madaniyat jurnali, 2022 yi.
14. Nuriddin Ahmadiyev. YOSHLARNING AXLOQ MADANIYATINI OSHIRISHDA OILA MUHIT VA KEKXA AVLODNING O'RNI. Obshchestvo s ogranichennoy otvetstvennostyu Internauka, 2020.
15. Nuriddin M Ahmadiyev. [YOSH AVLOD MA'NAVIY AXLOQ OLAMI SALOMATLIGI OMILLARI](#). Sharq ijtimoiy fanlar jurnali, 2022 yil.

Chor Rossiyasining O'rta Osiyoga rus aholisiniko'chirish siyosati

Umidjon Paxriddinov

FarDU akademik litsey tarix fanio'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Rossiya imperiyasining Turkiston o'lkasidagi Farg'onaviy oylatiga aholiko'chirish siyosatining dastlabki davri haqida so'z boradi.


Maqoladagi ishlatilgan barcha ma'lumotlar tarixiy faktlar hisoblanadi.

Mazkur davr tarixiga oid ko'plab terminlar qo'llaniladi.

Kalitso'zi: Harbiy gubernator, ko'chirish, general-gubernatorligi, volost, Ko'chiruvchilik boshqarmasi

Аннотация: В данной статье рассказывается о раннем периоде переселенческой политики Российской империи в Ферганской области Туркестана. Вся информация, использованная в статье, является историческим фактом. Многие термины используются для истории этого периода

Ключевое слово: военный губернатор, переселенки, генерал-губернаторство, волость, переселенческое управление



Abstract: This article describes the early period of the resettlement policy of the Russian Empire in the Ferghana region of Turkestan. All the information used in the article is a historical fact. Many terms are used for the history of this period

Keyword: military governor, resettlement, general government, volost, resettlement administration

Rossiya imperiyasi boshqaruv apparati Turkiston o'lkasini bosib olgach, mustamlakachilik siyosatlarida o'z oldilariga bosh maqsad qilib ruslashtirish siyosatini qo'ydilar. Bu boradagi eng muhim va boshlang'ich qadam Rossiya hududlaridagi xalqlarni Turkiston yerlariga ko'chirishdan iborat bo'ladi. Chorizmning ko'chirish siyosatining mohiyati shundan iborat ediki ko'chirma xo'jaliklar uchun yer fondi mahalliy xalqning yerga bo'lgan huquqlarini o'taketgan darajada buzish yo'li bilan tuzilgan Rossiyadan dehqonlarni u yerga ko'chirish esa, chekka o'lkalarni ruslashtirish maqsadini ko'zlab millatchilik tamoyili asosida amalga oshirilgan⁷. Shuning uchun ham 1886-yildagi "Nizom"da rus manzilgohlari qurishga alohida e'tibor qaratilgandi. Nizomda aytilishicha, hukumat tasarrufida qolayotgan bo'shturgan davlat yerlariga "ularga rus aholisini joylashtirishda muhim ahamiyatga" ega bo'lgan. O'lkaning ular kelib joylashishi mumkin bo'lgan joylarini belgilab berish esa general-gubernator ixtiyorida qoldirilgan edi⁸.


Rossiya imperiyasi generallari ham, siyosatchilari ham shuni yaxshi bilar edilarki, faqat harbiy kuch, Markaziy boshqaruv apparatini joriy qilish bilan o'lkani uzoq muddat va ishonchli holda qo'lda ushlab bo'lmaydi. Shuning uchun ularda o'z millati, ya'ni rus millatiga mansub aholini mahalliy xalq orasida aralashtirib yuborish, Turkistonda doimiy yashaydigan rus va slavyan aholini tarkib toptirish kerak edi. Ular bu muammoni O'rta Osiyoga rus xalqining turli tabaqalariga mansub bo'lgan aholining bir qismini ko'chirish yo'li bilan hal qilmoqchi bo'ldilar. Shuningdek, mahalliy xalqning mustamlakachilar hokimiyatiga nisbatan xatti-harakatlarini kuzatib, zarur paytda ahvoldan darhol xabardor qilishlari ham lozim edi. Xullas, rus millatiga mansub bu kishilar chorizm uchun ijtimoiy tayanch qatlam bo'lishi kerak edi.

Shuning uchun ko'chirish siyosatini amalga oshirish Turkiston general-gubernatorligi tashkil etilgan 1867-yildayoq boshlab yuborildi. Rossiya imperiyasi ko'chirish bo'yicha uch yarim asrlik tajribaga ega edi. U Boltiq bo'yi xalqlarini va Qozon, Sibir, Qrim, Astraxan xonliklarini bosib olib, ko'chirishning har xil shakl va uslublarini mukammal egallab olgan edi. Natijada faqatgina maxsus farmoyishlar bilan ko'chirilgan rus qishloqlari aholisiga emas, balki erkin suratda ko'chib boruvchilarga ham katta-katta shart-sharoitlar, pul va boshqa moddiy-ma'naviy yordamlar berildi.

Rus quroli va tartib-qoidalari O'rta Osiyo hududlarini kalitsiz darvozasi lang ochilgan maydonga aylantirib yubordi. Natijada mansab istaganlar, ishyoqmaslar, xullas, har xil odamlar, hatto, jinoiy guruhlar ham temir oqim singari O'rta Osiyoga oqib kela boshladilar. Ammo dastlabki davrdayoq chorizm mustamlakachilari bu yerda Sibir tajribasini amalga

⁷ Shamsutdinov R. Karimov Sh., Ubaydullayev O'. Vatan tarixi (XVI-XX asr boshlari). Ikkinchi kitob. Toshkent, Sharq, 2010.202-2023-betlar.

⁸ Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. O'zbekistonning yangi tarixi. Birinchi kitob. Toshkent, Sharq, 2000.219-bet.



oshirib bo'lmashligini anglab yetdilar. U yerda o'zlashtirilmagan yerlar juda ko'p bo'lsa, Turkiston boshqacha edi, ya'ni ekilayotgan yerlar band, bo'sh yerlar esa kam edi. Natijada O'rta Osiyoga aholini ko'chirish ulardan ancha ehtiyotkorlikni talab qildi.

Istilo qilingan hududlarga rus aholisini ko'chirish tashkilotchilarining eng tashabbuskori fon Kaufman edi. U 1875-yilda Avliyoota tumanida dastlabki rus qishlog'ini barpo etdi. Kaufman rus qishlog'ini tashkil etish, uni muhofazaga olish qoidalarini ishlab chiqdi, o'lkaga ruslar kelishini har tomonlama rag'batlantirdi. Uning hukmronligi davrida 8 ta rus qishlog'i vujudga keldi⁹.

1886-yilgi «Nizom» rus aholisini ko'chirib keltirish yo'li bilan o'lkani ruslashtirish harakatini qonuniy mustahkamlab, unga siyosiy tus berdi. Ko'chib keluvchilarga 10 desyatnadan kam bo'lmagan yer ajratish belgilandi. Turkistonga kelib o'rnashish va yer-mulkka ega bo'lish huquqi faqat nasroniy dinining pravoslav mazhabidagilargagina berildi. 1886-yilgi Qonunga ko'ra, o'lkaga ko'chib keluvchilarni tanlash va joylashtirish tartiblari belgilandi. «Bo'sh davlat yerlari»ga birinchi navbatda xizmatdan bo'shagan zaxiradagi zobitlar, quyi unvondagi harbiy xizmatchilarning joylashtirilishi alohida ko'rsatildi. Ammo Qonunda «Bo'sh davlat yerlari» deyilganda qanday yerlar nazarda tutilishiga izoh berilmadi. Holbuki, ana shu masala o'lkadagi yer-suv munosabatlariga bevosita aloqador bo'lib, u keyinchalik muammoga aylandi, mahalliy xalqning qat'iy noroziligiga sabab bo'ldi.

Dehqonlar imperiyaning qora tuproqli markaziy hududlaridan yer taqchilligidan qutulish va mustamlaka Turkistonda boyish uchun ham Rossiyadan beto'xtov oqib kela boshladilar. Ular ma'muriyatning ijozatisiz ham o'lkaga kelib o'zboshimchalik bilan tub aholiga qarashli yerlarni egallay boshladilar. 15 yil davomida, ya'ni 1875-1890-yillar ichida Turkistonda 1300 ta oila joylashib, 19 ta rus qishlog'ini tashkil qildi. 1891-1892-yillarda Rossiyada ocharchilik boshlanganda esa Turkistonga ko'chib keluvchilarning soni nihoyatda ko'payib ketdi. Ana shu ikki yil davomida 25 ta rus qishlog'i paydo bo'lib, rus dehqonlarining soni ikki barobar ko'paydi. 1890-yilda Farg'ona viloyatida 5 ta rus qishloqlari mavjud edi. Ularning manzillari ulardagi xonadonlar va istiqomat qiluvchilar haqida quyidagi jadval ma'lumotlar beradi¹⁰.


Shuni alohida ta'kidlash joizki, mahalliy aholi bilan rus dehqonlari o'rtasida yer-suv masalasida sug'orish inshootlaridan foydalanish bobida o'zaro to'qnashuvlar kuchaydi. Bu janjallar va to'qnashuvlarning asosiy sababchisi rus dehqonlari edi. Bunday ko'ngilsiz voqeani odilona, tinch bartaraf qilishga uringan ayrim ilg'or kayfiyatdagi rus amaldorlari quvg'inga uchratildi. Ko'chib keluvchi ruslar ularni o'lkadan siqib chiqarishi yoki butkul qirib tashlashi darkor». Xuddi ana shunday ruhda ishlab chiqilgan 1889-yil 13-iyuldagi Qonun ko'chib kelgan rus aholisiga imtiyozlar va moddiy yordam berishni belgiladi.

1892-yilda ruslashtirish siyosatida tub burilish boshlandi. Xuddi shu yildan boshlab Rossiyadan o'zboshimcha ko'chib kelgan minglab «kelgindi»larning ma'muriyat ijozati bilan kelganlar qatorida ularga berilgan huquqlardan foydalanishlari mumkinligi e'lon qilindi.

O'z yerlaridan dehqonlarning ketib qolishiga qarshilik qilgan rus pomeschiklari mamlakatda

⁹ Ilhomov Z., Xo'jamov M. O'zbekiston tarixi (XVI-XX-asr boshlari) ma'ruza matnlari. Toshkent, 2002.25-bet.

¹⁰ Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. O'zbekistonning yangi tarixi. Birinchi kitob. Toshkent, Sharq, 2000.219-bet.



kuchayib borayotgan dehqonlar harakatidan xavotirlanib, «to'polonchi unsurlar» ning Turkistonga ketishiga endi rasman xayrixohlik ko'rsata boshladilar. Mustamlaka o'lkaga ruslarni yuborish masalasi bilan shug'ullanuvchi maxsus idora – «Ko'chirib keltirish boshqarmasi» tashkil qilindi. Podsho Rossiyasi hukumati 90 yillar oxirida rus dehqonlarining kam yerli va yersizlariga «Osiyo Rossiyasida bo'sh yotgan yerlardan» foydalanishga keng imkoniyat yaratdi. Shunday qilib, Podsho hukumati Rossiya dvoryan-pomeshchiklari manfaatini ko'zlab, ularni «ichki balo» – kambag'al dehqonlar xurujlaridan saqlash uchun Turkiston yerlarini ularga qurbon qildi. Ichki norozilikni mustamlaka xalq hisobidan hal qilishga urindi.

O'rta Osiyoga rus aholisining ko'chirilishi mahalliy xalqlarning moddiy-ma'naviy turmushiga salbiy ta'sir qilardi. Dehqonlarning kam yerli ekanligi bu ziddiyatni yanada kuchaytirib yuborishi aniq edi.

Bu kutilmagan vaziyat e'tiborga olinib, 1888-yilda Podsho generallaridan biri O'rta Osiyoga ko'chirib keltirilgan rus kazaklarining ekinlarini to'ng'iz va boshqa yovvoyi hayvonlar payhon qilib kelmoqda, qabilida bahona qilib, o'lkadagi rus qishloqlarini qurollantirish kerak, degan masalani qo'ydi. Bir-birini imi-jimida tushunuvchi mustamlakachi hokimiyat vakillari masalaning mohiyatini darrov anglab oldilar. Shu tariqa, faqat dehqonchilik qiluvchi rus kazaklari dehqonlarini qurollantirishga kirishildi.

Demak, ko'chirish siyosati chorizmning mustamlakachilikni mustahkamlash yo'lidagi tadbirlaridan biri bo'lib, harbiy-siyosiy maqsadni ko'zlab amalga oshirilgan edi.

Shuni ta'kidlash lozimki, viloyat shaharlari aholisi ayniqsa, XX asr boshlariga kelib tez sur'atlar bilan ortib bordi. Buning asosiy sababi - shahar aholisi tabiiy ko'payish bilan birgalikda shaharlarning temir yo'l bilan bog'lanishi, zavod va fabrikalarning paydo bo'lishi va rivojlanib borishi, savdo munosabatlarining jonlanishi, qishloqlarda yersiz dehqonlarning paydo bo'lishi va ularning ish izlab shaharlarga kelishi ham o'z ta'sirini ko'rsatgandi.


Mustabid imperiya markazi talabi bilan 1905 yilda ziroat va davlat mulklari vazirligi tarkibida «Ko'chiruvchilik boshqarmasi» tuzildi¹¹.

Ko'chirish siyosati bilan shug'ullanish o'lka ma'muriyati zimmasiga yuklatilgan. Ko'chib kelganlarga katta imtiyozlar berilgan. Jumladan, ular mablag', turar joy, yer maydonlari, kreditlar bilan ta'minlangan. Ko'chib kelganlar 5 yil davomida soliqlardan ozod etilgan, keyingi 5 yil davomida soliqlarning yarmini to'lagan. Rossiyadan ko'chib kelganlar asosan qishloq axolisi bo'lgan. Ular uchun o'lka ma'muriyati maktab va cherkovlar qurishga mablag' ajratgan. Turkiston o'lkasida harbiy xizmatchilar yashab qolishlari va tomorqa yer olishlari mumkin bo'lgan.

Ana shu imtiyozlar va imkoniyatlar Rossiyadan dehqonlarning ulkan oqimi kelishiga sabab bo'ldi. Kelganlar hammasi sug'orma maydonlardan yer olishni istardi. O'lkada yerga ehtiyoj keskin ortib ketdi. Mahalliy aholining yerlari egallab olinib, ularni o'z jonajon yerlaridan siqib chiqara boshlashdi.

1906-yilda Farg'ona viloyatining O'sh uyezdi Pokrovskoye qishlog'ida o'ziga to'q rus kishilari yaylov va jamoa ixtiyoridagi o'tloqni mahalliy aholidan tortib olgan. Andijon tumani Ko'gart

¹¹ Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. O'zbekistonning yangi tarixi. Birinchi kitob. Toshkent, Sharq, 2000.221-bet.



volostida esa kelgindilar tub joy aholining yerlarini zo'rlik bilan egallaydi. Aholi ular ustidan shikoyat qilganda esa Ko'chiruv mahkamasi amaldorlari rus dehqonlari tomonida turib, ularning manfaatini himoya qilishadi. Zo'ravonlik shu qadar kuchayib ketdiki, hatto Turkiston general-gubernatori Grodekov, uning yordamchisi general Kondratovich, Yettisuv viloyati harbiy gubernatori general-mayor Ionovlar Ko'chiruv mahkamasi boshlig'i Veletskiyning o'zboshimcha harakatlariga chek qo'yishni talab qilib, Peterburgga telegramma yuborishadi¹². Ammo markaz teskari ish tutib, avvalo general Ionovni iste'foga chiqardi, so'ng Grodekov va Kondratovichlarni lavozimlaridan chetlatib, Peterburgga chaqirtirib olindi. Yangi general-gubernator Mishchenko, Ziroat va davlat mulklari boshqarmasi boshlig'i Lazarevskiy Ko'chiruv mahkamasi faoliyatiga chek qo'yishga intilishganda ular ham vazifalaridan chetlatildi. Birgina Ko'chiruv mahkamasi boshlig'i kollej maslahatchisi Veletskiy uchun Peterburgning oliy doiralari undan bir necha barobaryuqori martabali to'rt general va ikki stats-maslahatchining bahridan o'tdi. Ana shu dalilning o'zi ham chorizm birinchi navbatda rus dvoryanlari manfaatini qanchalik yuqori qo'yganligidan dalolat beradi.

Turkistonda rus nufuzini ko'paytirishga markaz katta e'tibor berib, bunga mablag'ni ayamadi. 1908-1910 yillarda o'lkani taftish qilgan markaz vakili senator graf K.K.Palen Turkistondagi rus hukmronligining asosiy vositasi o'lkada o'ziga to'q rus dehqonlarini ko'paytirish deb hisobladi¹³. Senatorning fikricha, ana shunday o'ziga to'q rus dehqonlar imperiya bilan mustamlakani o'zaro bog'lovchi va yaqinlashtiruvchi «ishonchli» unsur bo'lib qoldi. 1906-1915 yillarda Sirdaryo-Farg'ona ko'chiruv hududi bo'yicha rus dehqonlari uchun mahalliy aholiga qarashli 744,9 ming tanob yer musodara qilindi. Turkistondagi eserlar partiyasi 1908 yilda chiqargan bu xitobnomada tarixiy haqiqat o'z aksini topgan. Turkiston xalqlarining ota meros yerlari rus kelgindilariga zo'ravonlik bilan taqsimlab berilayotgani aniq dalillar asosida ko'rsatilgan.

Birgina Marg'ilon tumanida shu tariqa o'zbeklarning 11,5 ming tanob yeri musodara qilindi. Jalolquduq volostida esa solig'ini to'lolmay yeridan voz kechgan o'zbek dehqonlariga qarashli joyda 3 rus posyolkasi, Andijon tumanida 2, O'shda esa 1 posyolka barpo etildi. Shu tariqa 1906-1913 yillar mobaynida Turkistonda 116 rus posyolkasi qurildi¹⁴.

Xulosa qilib shuni alohida ta'kidlash lozimki, podsho hukumatining ko'chiruvchilik tadbirlari oxir-oqibatda o'lkada rusiyzabonlarni ko'paytirishga olib keldi, ularning iqtisodiy mavqeini kuchaytirib, mahalliy xalqqa nisbatan kalondimog'ligini yanada oshirdi. Bu esa buyuk rus shovinizmning ijtimoiy-iqtisodiy zaminini yaratdi.


Foydalanilgan Adabiyotlar Ro'yxati:

1. Abdullaev U.S. Farg'ona vodiysida etnoslararo jarayonlar. –T., «Yangi asr avlodi», 2005.
2. БобобековХ. Қўқон тарихи. - Т: Фан, 1996.


¹² Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. O'zbekistonning yangi tarixi. Birinchi kitob. Toshkent, Sharq, 2000.223-bet.

¹³ Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. O'zbekistonning yangi tarixi. Birinchi kitob. Toshkent, Sharq, 2000.225-bet.

¹⁴ Shu kitob. 228-bet.



3. Ilhomov Z., Xo'jamov M. O'zbekiston tarixi (XVI-XX asr boshlari) ma'ruza matnlari. Toshkent, 2002.
4. Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. O'zbekistonning yangi tarixi. Birinchi kitob. Toshkent, Sharq, 2000.
5. Абашин С.Н. Население Ферганской долины (к становлению этнографической номенклатуры в конце XIX – начале XX века) // Ферганская долина. Этничность, этнические процессы, этнические конфликты. – М.: Наука, 2004.
6. Nuriddin Mukhitdinovich Akhmadiev, Islamic Spiritual Prosperity Of Youth In Religious Education. Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology, 1 tom, 2019.
7. Nuriddin M Ahmadiev, Islom M Juraev, Family reading-a leading factor in the promotion of youth moral education. Научные исследования в Кыргызской Республике, 2019.
8. Nuriddin Akhmadiev, Factors of raising the level of spiritual and social activity in the youth, Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology, tom1, 2019.
9. NM Ahmadiev, SPIRITUAL AND MORAL UPBRINGING OF YOUNG PEOPLE IS A FACTOR OF GREAT PROSPECTS. ПЕДАГОГИКА. ПРОБЛЕМЫ, ПЕРСПЕКТИВЫ, ИННОВАЦИИ, 2020.
10. Akhmadiev Nuriddin Mukhutdinovich, Intellectual Culture in Increasing the Innovative Activity of Young People-An Important Criterion, American Journal of Social and Humanitarian Research, 3-tom, 2022.
11. Nuriddin Akhmadiev, The role of youth ideological upbringing in the prevention of spiritual threats. Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal, tom 11,2021.
12. NM Axmadiyev, PAVLONIYA-MO'JIZAVIY DARAXT, European Journal of Interdisciplinary Research and Development, tom 15.2023.
13. Akhmadiev Nuriddin Mukhutdinovich, In Matters of Spiritual and Moral Education of Children in the Family, the Alienation of Youth to the Older Generation, Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture, tom 3.2022.
14. Nuriddin Ahmadiev, THE ROLE OF THE FAMILY ENVIRONMENT AND THE ELDERLY GENERATION IN THE IMPROVEMENT OF THE MORAL CULTURE OF YOUTH. Интернаука 2020.
15. Nuriddin M Akhmadiev, FACTORS FOR THE HEALTH OF THE SPIRITUAL MORAL WORLD OF THE YOUNGER GENERATION, Oriental Journal of Social Sciences, tom 2, 2022.
16. NM Axmadiyev, Abduvaliyeva Zarnigor, MARKAZIY OSIYODA AYOLLARNING O'RNI VA ROLI, European Journal of Interdisciplinary Research and Development tom 16, 2023.



-
17. NM Axmadiyev, Y Axmadiyeva, BARKAMOL AVLOD TARBIYASIDA ESTETIK TARBIYA VOSITALARINING O‘RNI VA AHAMIYATI, Miasto Przyszłości, tom 42, 2023.
 18. NM Axmadiyev, INTELLECTUAL CULTURE IN IMPROVING INNOVATIVE ACTIVITY OF YOUNG PEOPLE-AN IMPORTANT CRITERION. Web of Humanities: Journal of Social Science and Humanitarian Research, tom 1, 2023.
 19. NM Akhmadiev, FI Andapulatova, Description of Terms in Uzbek. Open Academia: Journal of Scholarly Research, tom 1, 2023.
 20. NM Akhmadiev. THE ROLE OF THE OLDER GENERATION IN THE DEVELOPMENT OF CIVIL SOCIETY AND MORAL DEVELOPMENT OF YOUTH. Academia Science Repository, tom 4, 2023.
 21. 21 NM Axmadiyev. “CHICORIUM INTYBUS L” O‘SIMLIGINING ELEMENTLAR TARKIBI VA MIQDORINI O‘RGANISH. European Journal of Interdisciplinary Research and Development, tom 16,2023.
 22. NM Axmadiyev, Xaydarov Abdukamol Xaqyor o‘g‘li. RENET SIMIRENKO (OLMA NAVI) NING KELIB CHIQISHI VA XUSUSIYATLARI. European Journal of Interdisciplinary Research and Development, tom 16.2023.
 23. NM Axmadiyev. NEFT ISHQORIY CHIQINDILARINI ATROF-MUHITGA TA‘SIRI. European Journal of Interdisciplinary Research and Development. Tom 16, 2023.
 24. Нуриддин Ахмадиев. [INTELLEKTUAL MADANIYAT YOSHLARNING INNOVATSION FAOLLIGINI OSHIRISHNING MUHIM MEZONI SIFATIDA.](#) Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences. Tom 3, 2023.